

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Sh. Ashurov¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rgatishda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari haqida fikr yuritiladi. Xorijiy tillarni o'rganishda kompyutordan foydalanishning uslubiy hamda texnik afzalliklari to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan. Axborot texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanishning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati hamda turli xil xususiyatlarini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: axborot kommunikatsion texnologiyalar; multimedia vositalari; xorijiy tillar; elektron darslik

doi: <https://doi.org/10.2024/szx0rw32>

Xorijiy tillarga o'qitishning o'ziga xosligi shundaki, tabiiy til muhiti yo'qligi sababli o'quvchilar uchun sun'iy til muhitini yaratish maqsadida eng maqbul turli texnik o'qitish vositalaridan keng foydalanishni talab qiladi. Shu sababli, xorijiy tillarni o'qitishda multimedia vositalari taqdim etayotgan yangi imkoniyatlarni beruvchi keng ko'lamli ilovalardan foydalaniyotgani bejizga emas. Bunda, asosiy rolni, albatta, axborot kommunikatsion texnologiyalar (AKT) va multimedia vositalari o'ynaydi. Lekin, birinchi navbatda darsda o'qituvchining o'zi kompyutor savodxonligiga ega bo'lishi, ya'ni, Microsoft Word, Exel, Power Point va boshqa shu kabi murakkab bo'lmagan dasturlardan hamda turli xil brauzerlardan foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishi muhim masala hisoblanadi. AKTlarni boshqarish va qo'llash imkoniyatiga ega bo'lish muhim, ammo shu bilan birgalikda ulardan foydalangan holda darsni faollashtirish va o'quvchilarga hissiy ta'sirini oshirishda ularning roli kattaligini ham unutmashlik lozim.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar deyarli barcha fanlarni o'qitishda qo'llaniladi, yangi ma'lumotlar manbalaridan foydalanishni ta'minlaydi, mustaqil ish samaradorligini oshiradi, talabada ijodkorlik, kasbiy ko'nikmalarni egallash va mustahkamlash bo'yicha yangi imkoniyatlar yaratadi, o'qitishning tubdan yangi shakl va usullarini amalga oshirishga imkon beradi. Bugungi kunda chet tillarini o'qitishning uslubiy standarti, albatta, real sharoitlarga iloji boricha yaqinroq bo'lgan kommunikativlikka yo'naltirilgan usuldir. Oliygo'hlarda ushbu usulni amalga oshirishni osonlashtiradigan shart-sharoitlarni ta'minlash zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Ko'plab metodistlar kompyuter chet tilini o'rgatishning eng mos vositasi ekanligini hamda maqsadi interaktiv muloqot shaklini yaratishini ta'kidlaydilar (Braun, 1994). Multimedia texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan chet tillarini o'qitish sohasidagi so'nggi ishlanmalar tufayli o'quv jarayoni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi – hozirda biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, hatto universitet

¹ *Ashurov Shahobiddin Saidovich, SamDCHTI professori*

ta'lim sharoitida ham, sun'iy intellekt tabiiy muloqotga taqlid qilish imkonini bermoqda. Ingliz tilini kompyuterda o'qitishning bir qancha afzalliklarini ta'kidlash kerak:

1. Qulay psixologik muhit yaratish, ingliz tilini o'rganish motivatsiyasini oshirish

2. Kompyuterda o'qitishning uslubiy afzalliklari: sinfda yoki lingafon kabinetida ishlashdan ko'ra ko'proq interfaol ta'lim, individual ta'lim tamoyillariga muvofiq bajariladigan vazifalarning tezligi va darajasini mustaqil tanlash qobiliyati.

3. Bundan tashqari, kompyuter yordamida chet tilini o'rganishda grammatik qurilmalarni o'zlashtirish va so'z boyligini oshirish tezligi 2-3 barobar ortadi.

4. Kompyuter yordamida ingliz tilini o'rgatishning texnik afzalliklari sifatida quyidagialrni ko'rsatib o'tish mumkin: tez va qulay holda texnik tarjimani bajarish; grammatika va imlo tekshiruvlaridan hamda nutqiy qobiliyatlarni o'rgatishda multimedia va interaktiv videolardan foydalanish imkoniyati.

5. Kompyuterning grafik imkoniyatlari o'qitish usullarini an'anaviy usullardan ajratib turadi va o'qitishni vizualizatsiya qilish tamoyilini amalga oshirish imkonini beradi. Bitta ta'lim muassasasida bir nechta kompyuterlarni birlashtiruvchi mahalliy va butun dunyo bo'ylab millionlab foydalanuvchilarni bog'laydigan global kompyuter tarmoqlarining ta'limiy ahamiyati deyarli bebahodir.

6. O'qituvchilarning kasbiy qobiliyatini oshirish ham shular jumlasidandir (Reynders, 2010).

Ammo ushbu afzalliklarga qaramasdan, axborot texnologiyalari yordamida o'qitishning ulkan salohiyati ushbu usulning nisbatan yangiligi bilan bog'liq muammolar tufayli to'liq foydalanilmayapti. Ular orasida universitetlarning zamonaviy texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanmaganligi, samaradorlikni baholashning aniq standart va mezonlari ishlab chiqilmaganligi sababli yuqori sifatli dasturiy ta'minotning yo'qligi, shuningdek, dastur yaratuvchilarning ba'zan nazariyaga nisbatan bepisand munosabati ham ushbu interferentsiya holatlarini keltirib chiqarmoqda.

Ushbu masala bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish asosida ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi variantlarini tavsiya qilish mumkin:

- o'qitish vositasi sifatida axborot texnologiyalaridan tizimli foydalanish;
- axborot texnologiyalarining ma'lum bir fragmentlaridan foydalanish.

Kompyuterdan foydalangan holda butun o'quv kursini amalga oshirish orqali biz ingliz tilini o'qitish jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi variantlarini taklif qilishimiz mumkin.

• O'tilgan leksik va grammatik materiallar bo'yicha diagnostik, test dasturlari yordamida joriy va yakuniy testlarni (mavzu, bob, to'liq kurs bo'yicha) o'tkazish;

• Biz ko'p hollarda hanuzgacha ilgari qabul qilingan o'qitish modeliga ko'ra: ta'lim texnologiyasi markazida - o'qituvchi; talabalar o'rtasida so'zsiz raqobat mavjud; talabalar sinfda passiv rol o'ynaydi; o'rganishning mohiyati bilimlarni (faktlarni) uzatishdir. Uning o'rnini bosadigan yangi ta'lim modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi: ta'lim texnologiyasi markazida - talaba; o'quv faoliyatining markazida - hamkorlik; talabalar bilim olishda faol rol o'ynaydi;

- texnologiyaning mohiyati tinglovchilarning o'z-o'zini o'rganish qobiliyatini va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdir;
- Multimedia yordamida hal qilinadigan asosiy vazifalar guruhlariga quyidagilar kiradi: talabalarning bilim olishini qo'llab-quvvatlash;
- xorijiy tilda so'zlashuvchilar bilan haqiqiy muloqotni ta'minlash;
- markazlashtirilgan axborot tizimlarida saqlanadigan jadal o'sib borayotgan axborot fondlaridan ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga kirishini ta'minlash; o'qituvchilarning o'zaro hamkorligini ta'minlash, pedagogik tajriba va didaktik materiallar almashish.

Xulosa qilib aytganda, oliygohdagi zamonaviy o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyati - bu talabalarning mustaqil ta'limiga alohida e'tibor qaratish, shu jumladan zamonaviy axborot-ta'lim muhitidan foydalanish orqali rivojlantirishga erishish muhimdir. Jamiyatni axborotlashtirishda, internet makonda professional muloqotni virtualizatsiya qilish anoligini yaratish, oliy o'quv yurtlari talabalarini kasbiy madaniyatlararo muloqotga o'qitish tizimini madaniyatlararo muloqot muhitiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Ашуров, III. (2022). Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati. Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 294–296. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/analysis-problem/article/view/12979>
- [2]. Azimov E.G, Schukin A.N. (2009). A new dictionary of methodological terms and concepts (theory and practice of teaching languages). - IKAR
- [3]. Brown H. D. (1994). Principles of language learning and teaching. N: Prentice Hall, 1994.
- [4]. Маҳкамова, III.C. Ашуров (2015). English language teaching methodology.
- [5]. Reinders, H. (2010). "Twenty ideas for using mobile phones in the language classroom." English Teaching Forum. (3), Pp 21-23.